SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NASIMOVA MUATTAR XASANOVNA

TALABALARNING INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI “TASK-BASED” TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:378+37.091.3

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Nasimova Muattar Xasanovna
Talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini “Task-based” ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtirish 3

Насимова Муаттар Хасановна
Совершенствование устной речевой компетенции студентов по английскому языку на основе технологии обучения, ориентированной на выполнение заданий (Task-Based Learning)..... 25

Nasimova Muattar Xasanovna
Improving Students’ English Oral Communication Competence through Task-Based Learning Teaching Technology 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NASIMOVA MUATTAR XASANOVNA

TALABALARNING INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI “TASK-BASED” TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10170 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Boltakulova Gulnoza Farruxovna** Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Normatova Nurjamol Normatovna** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Yuldashev Ulug‘bek Ravshanbekovich Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “14” noyabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66703-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “2”. noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “2” noyabr dagi № 014 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini o‘qitish sifatini oshirish, talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini real hayotiy muloqotga yaqinlashtirish pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda kommunikativ topshiriqlarni talabalarning til bilish darajasi, kommunikativ ehtiyojlari hamda kasbiy yo‘nalishlariga mos tanlash, ularni darsning maqsad va mazmuniga integratsiyalash, topshiriq bosqichlariga muvofiq interfaol mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda ularning ta’limiy samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi chet tilini o‘qitish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini “task-based” ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtirishning lingvodidaktik modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon ilmiy amaliyotida oliy ta’limda og‘zaki nutqni o‘qitishda topshiriqqa asoslangan yondashuvni takomillashtirish, kommunikativ metodika, raqamli pedagogika, sun’iy intellekt vositalari hamda interfaol o‘qitish platformalari asosida nutqiy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda kommunikativ vazifalar asosida nutqiy ravonlik, aniqlik, murakkablik va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, vazifalarni murakkablik darajasiga ko‘ra differensiallashtirish, adaptiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, sun’iy intellekt yordamida nutqiy faoliyatga qayta aloqa berish hamda talabalarning o‘quv faoliyatini o‘quv analitikasi asosida monitoring qilish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida immersiv ta’lim muhitlari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, generativ sun’iy intellekt hamda shaxsga yo‘naltirilgan adaptiv o‘qitish vositalari asosida “Task-based” ta’lim texnologiyasi metodikasini takomillashtirish, vazifaga asoslangan kommunikativ faoliyatni diagnostik baholash tizimlarini ishlab chiqish hamda ularning lingvodidaktik samaradorligini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, chet tillarini o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda”[1]. Shunga muvofiq, oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitishda “task-based” ta’lim texnologiyasidan didaktik maqsadlarga muvofiq foydalanish metodikasini ishlab chiqish, kommunikativ vazifalar asosida talabalarning og‘zaki nutq va madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish, shuningdek, mazkur

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 21-oktabrda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. – https://president.uz/oz/lists/view/8582

texnologiyadan foydalanish samaradorligini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish va uni ta’lim amaliyotiga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2024-yil 27-martdagi 157-son “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, D.U.Xoshimova, I.M.Tuxtasinov, U.U.Jumanazarov, Sh.Z.Taylanova, A.E.Rustamova, A.Y.Nurmuratov, N.V.Petrosyan, L.T.Abdullayeva, M.U.Buranova, F.P.Davronova, Sh.Sh.Rustamova, A.B.Musoyeva, N.N.Normatova, U.U.Sattorov, L.F.Xoliqova[2] kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

[2] Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: докт. дисс. … пед. наук (DSc). – 2007. – 209 с.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: ped. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018.–83b.; Жуманазаров У.У. Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш: пед. фанлари доктори (DSc) дисс. – Т., 2021. – 352 б.; Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish: ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 130 b.; Rustamova A.E. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini pedagogik diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida): ped. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 75b.;Нурмуратов А.Я. Масофавий таълимда инглиз тилини ўқитиш методикаси: пед. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2024.; Petrosyan N.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali til yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish: ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 26 b.; Абдуллаева Л.Т. Талабаларнинг социолингвистик компетенциясини электрон ресурслар асосида такомиллаштириш (инглиз тили мисолида): пед. фанлари бўйича фалсафа

Chet tillarni o‘qitishda ta’limni TBL texnologiyasi asosida tashkil etish masalalari N.M.Yuldashevaning dissertatsiya ishida, shuningdek, N.Mirvafoyeva, A.Azimova, A.I.Xurramov, N.Djurayeva, A.G‘ulomov, Sh.Yusupova[3] kabi yosh olimlarning ilmiy maqolalarida o‘rganilgan bo‘lib, ularda vazifaga asoslangan ta’lim texnologiyasining nazariy asoslari va uni ingliz tili darslarida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

MDH mamlakatlarida chet tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo‘yicha Ye.A.Rubleva, A.S.Shimichev, V.V.Gromova, T.P.Popova[4] va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Xorijiy mamlakatlarda TBL texnologiyasi masalalari M.H.Long, R.Ellis, D.Nunan, N.Prabhu, P.Skehan, J.Willis, R.Frost[5] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan.

доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 15 б.;Buranova M.U. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘qishni o‘rgatishda noan'anaviy usullarning joriy qilinishi (ingliz tili materialida): ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 17 b.; Davronova F.P. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o‘qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish: ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 14 b..; Rustamova Sh.Sh. Umumta'lim maktablari yuqori (10-11) sinf o‘quvchilarining tinglab tushunish va so‘zlashuv ko‘nikmasini kommunikativ kompetensiya asosida rivojlantirish: ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 19 b.; Musoyeva A.B. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish (ingliz tili misolida): ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2022. – 22 b.; Норматова Н.Н. Инглиз тилини ўқитишда иқтисодиёт йўналиши талабаларининг оғзаки нутқ кўникмаларини ривожлантириш: пед. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 18 б.; Сатторов У.У. Немис тилини иккинчи чет тили сифатида масофавий ўқитишда янги авлод ўқув адабиётларини такомиллаштириш: пед. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 61 б.; Xoliqova L.F. Filologik ta'lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish: ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 15 b.

[3] Yuldasheva N.M. Talabalarning yozma diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishda TBLT texnologiyasini qo‘llashning lingvodidaktik xususiyatlari (jurnalistika yo‘nalishi misolida): ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 19 b.; Mirvafoyeva N. Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT)ning o‘zbek EFL va ESP talabalari tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi // Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – №4(32). – B. 33-34.;Azimova A. Yozuv darslarida TBLT (task-based language teaching) dan foydalanish // The Lingua Spectrum. – 2024. – №2(1). – B. 113-115.; Khurramov A.I. Application of task-based language teaching (TBLT) in developing reading competence of visually impaired learners // Science time international scientific journal. – Vol. 3.;Kudratillayevna N.D. Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT): nazariy asoslari va amaliy yondashuvlar // Journal of education, ethics and value. – №4(3). – P. 74-77.; G‘ulomov A. Xorijiy til o‘qitishda vazifaga asoslangan ta'lim. – Toshkent: O‘zbekiston ta'limi, 2010.;Yusupova Sh. O‘zbekiston ta'lim tizimida TBLT metodini qo‘llashning o‘rni. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2015.

[4] Рублева Е.А.Совершенствование иноязычной грамматической компетенции с использованием тестовой композиции: На материале испанского языка. автореф. дис. … канд. пед. наук. – Пятигорск, 2006. – 19 с. Шимичев А.С.Формирование грамматической компетенции студентов бакалавриата по направлению подготовки “лингвистика” (Межкультурный подход). Дис.. .канд.пед.наук. – Нижний Новгород, 2016. Громова В.В. Формиравание межкультурной коммуникативной на основе интердисциплинарного обучение (школа с углубленным изучением иностранного языкаб английский язык): Авторефюканд.пед.наук.-М., 2011.-25с. Попова Т.П. Формираваник иноязычной коммуникативной компетенции у студентов заочного отделения языкового вуза: монография. Т.П.Попова. Нижегород.гос.ун-т им Н.И.Лобачевского-Н.Новгород: 2013. – 186с.

[5] Long M. In defense of Tasks and TBLT: Nonissues and Real Issues // Annual Review of Applied Linguistics. – 2016. – Volume 36. – P. 5-33.; Ellis R. Moving task based language teaching forward // Language Teaching. – 2017. – Volume 50, № 4. – P. 507-526.; Nunan D. Task-based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 222 p.; Willis J. A framework for task-based learning. – Harlow: Longman, 1996. – 192 p. Prabhu N.S. Second Language Pedagogy. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 153 p.; Skehan P., Foster P. The influence of task structure and processing conditions on narrative retellings // Language Learning. – 1999. – Volume 49, № 1. – P. 93-120.; Frost R. A Task-based Approach [Electronic resource] // British Council – Teaching English. – URL: https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/knowing-subject/articles/task-based-approach

Yuqorida qayd etilgan mualliflar tadqiqotlarining nazariy va amaliy ahamiyatini inobatga olgan holda shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida og‘zaki nutq kompetensiyasini aynan TBL texnologiyasi asosida takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № SRFil-01 “Zamonaviy tilshunoslik masalalari va xorijiy tillarni o‘qitish uslubiyati” amaliy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich talabalarining ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini “Task-based” ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarning ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlash, ularning lingvopsixologik, kommunikativ va kognitiv xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

“Task-based” ta’lim texnologiyasining nazariy evolyutsiyasini tizimli ravishda tahlil qilish hamda uning og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni va samaradorligini aniqlash;

tajriba oldi diagnostik tahlillar asosida talabalarda uchraydigan psixolingvistik to‘siqlarni (nutq xavotiri, kommunikativ ishonchsizlik, lingvistik yetishmovchilik) aniqlash va ularning ta’sir darajasini baholash;

O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlari sharoitida TBL texnologiyasini samarali joriy etish uchun konseptual-adaptiv modelni ishlab chiqish hamda ushbu modelni amaliyotga tatbiq etishning bosqichma-bosqich metodik mexanizmini yaratish;

tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik metodlar asosida tahlil qilish, olingan natijalarni ilmiy jihatdan talqin etish va ishlab chiqilgan modelning samaradorligini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1-bosqich filolog talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini “Task-based” ta’lim (TBL) texnologiyasi asosida takomillashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilini o‘qitishda talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Task-Based Learning (TBL) texnologiyasining mazmuni, usullari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan konseptual-adaptiv model kommunikativ-faoliyat yondashuvi asosida ishlab chiqilib, uning psixolingvistik-

regulyativ komponentida talabaning nutq hosil qilish jarayonini o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali boshqaruvchi metakognitiv regulyatsiya mexanizmi dinamik-uzviy tarzda asoslangan;

Task-Based Language (TBL) texnologiyasining nazariy evolyutsiyasi komparativ-tarixiy rekonstruksiya asosida qayta tahlil qilinib, uning klassik kommunikativ yondashuvdan vazifaga yo‘naltirilgan kognitiv-diskursiv paradigmaga o‘tish trayektoriyasi talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarni aniqlashtiruvchi omil sifatida strukturaviy-dinamik tarzda nazariy dalillangan;

talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasi shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi psixolingvistik omillar diagnostik tahlil asosida psixometrik-differensial tarzda aniqlanib, ularning nutqiy faoliyatga “kommunikativ tormozlanish” mexanizmi orqali ta’sir etish qonuniyati darajaviy mezonlar tizimi hamda ishonch indikatorlari vositasida ilmiy asoslab berilgan;

oliy ta’limda vazifaga asoslangan til o‘qitish texnologiyasini joriy etishning konseptual-adaptiv mexanizmi ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarini diagnostik aniqlash asosida differensial-adaptiv tarzda takomillashtirilib, o‘quv vazifalarining ta’lim oluvchilar imkoniyatlariga moslashuvchanlik qonuniyati adaptiv mezonlar tizimi asosida ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

TBL yondashuvining nazariy va amaliy asoslari, og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar dizayni, kommunikativ baholash va test vazifalarini ishlab chiqish hamda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan “*Contemporary Approaches to Pedagogical Mastery”* nomli darslik nashr qilingan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti kengashining 2026-yil 4-iyundagi 11-son qarori, guvohnoma raqami 677);

TBL texnologiyasi asosida og‘zaki va yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar tizimi, kommunikativ mashqlar va baholash mezonlari ishlab chiqilib, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va chet tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan “**Oral and Written Speech Practice”** nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan (Samarqand davlat chet tillar instituti kengashining 2026-yil 1-iyuldagi 184-son qarori, guvohnoma raqami 184/13).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlarning ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan TBL texnologiyasining nazariy va metodik asoslari tizimli ravishda ishlab chiqilib, ilmiy jihatdan asoslab berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va vazifalar tizimining oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitishda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish hamda ingliz tilidan real kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini “Task-based” ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan konseptual-adaptiv model kommunikativ-faoliyat yondashuvi asosida ishlab chiqilib, uning psixolingvistik-regulyativ komponentida talabaning nutq hosil qilish jarayonini o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali boshqaruvchi metakognitiv regulyatsiya mexanizmi dinamik-uzviy tarzda asoslanganligi haqidagi xulosalari “*Contemporary Approaches to Pedagogical Mastery”* nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti kengashining 4-iyun 2026-yil 11-sonli qarori, guvohnoma raqami 677). Natijada, oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasining lingvistik-produksion, psixolingvistik-regulyativ, kommunikativ-pragmatik, kognitiv-refleksiv komponentlari aniqlanishiga erishilgan;

Task-Based Language (TBL) texnologiyasining nazariy evolyutsiyasi komparativ-tarixiy rekonstruksiya asosida qayta tahlil qilinib, uning klassik kommunikativ yondashuvdan vazifaga yo‘naltirilgan kognitiv-diskursiv paradigmaga o‘tish trayektoriyasi talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarni aniqlashtiruvchi omil sifatida strukturaviy-dinamik tarzda nazariy dalillanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 19-iyundagi 2297/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning faolligini ta’minlash, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muammoni hal qilish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish, liderlik qobiliyatini rivojlantirish, talabalarning dunyoqarashini kengaytirish hamda kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qilgan;

talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasi shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi psixolingvistik omillar diagnostik tahlil asosida psixometrik-differensial tarzda aniqlanib, ularning nutqiy faoliyatga “kommunikativ tormozlanish” mexanizmi orqali ta’sir etish qonuniyati darajaviy mezonlar tizimi hamda ishonch indikatorlari vositasida korrelyatsion-diagnostik tarzda ilmiy asoslab berilganligi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2025-yillarda Germaniyaning Gumboldt universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan “Erasmus+ International KA107 Credit Mobility, Key Action 1: Mobility for Learners and Staff – Higher Education Student and Staff Mobility” xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy

nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 6-apreldagi 04/1-1842-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini psixolingvistik jihatdan optimallashtirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda kommunikativ faoliyat sifatini yaxshilashga xizmat qilgan;

oliy ta’limda vazifaga asoslangan til o‘qitish texnologiyasini joriy etishning konseptual-adaptiv mexanizmi ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarini diagnostik aniqlash asosida differensial-adaptiv tarzda takomillashtirilib, o‘quv vazifalarining ta’lim oluvchilar imkoniyatlariga moslashuvchanlik qonuniyati adaptiv mezonlar tizimi asosida ilmiy asoslab berilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokanali “Radiointervyu” eshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokanalining 2026-yil 14-apreldagi 01-07/127-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning chet tilda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishgagina emas, balki muammoni aniqlash, yechim topish va mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham amaliy yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma va 1 ta lug‘at nashr etilgan; O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta, Scopus bazasida indekslanadigan jurnalda 1 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, asosiy matn hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotining u bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti belgilangan, uning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida og‘zaki nutq kompetensiyasi lingvistik bilimlar, psixologik jarayonlar va

ta’limni tashkil etishning didaktik mexanizmlari integratsiyasi asosida shakllanadigan ko‘p komponentli tizim sifatida tahlil qilingan. Nutq hosil qilish (speech production) va nutqni idrok etish (speech perception) jarayonlarining diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiya bilan bog‘liqligi ochib berilib, kompetensiya tarkibiga diskursni boshqarish, kommunikativ va kompensator strategiyalarni qo‘llash, sotsiolingvistik moslashuv hamda nutqiy faoliyatni metakognitiv nazorat qilish ko‘nikmalari kiritilgan. Shu sababli talabaning lingvistik tayyorgarligi bilan bir qatorda psixologik tayyorgarligini ham ta’minlash zarurati asoslangan.

Og‘zaki nutq mazkur kompetensiyaning amaliy ifodasi bo‘lib, u quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali shakllanadi (1-jadval):

1-jadval

Og‘zaki nutq kompetensiyasining muhim komponentlari

Lingvistik-produksion	Ingliz tilida og‘zaki nutq hosil qilish uchun zarur bo‘lgan til birliklaridan foydalanish qobiliyati.
Psixolingvistik-regulyativ	Nutq faoliyatini psixologik jihatdan boshqarish va tartibga solish qobiliyatini tavsiflaydi.
Kommunikativ-pragmatik	Ingliz tilidan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.
Kognitiv-refleksiv	Nutqiy faoliyatni anglash, tahlil qilish va takomillashtirish bilan bog‘liq bilish jarayonlarini ifodalaydi.

Psixolingvistik omillar orasida S.Krashenning affektiv filtr gipotezasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu olimning ta’kidlashicha til materialining o‘zlashtirilishi uchun tushunarli input (“i+1”) va past affektiv filtr, ya’ni qo‘rquv, xavotir va psixologik bosimning kamligi zarur[6]. TBL darslarida erkin muloqot muhiti, xatolarga tolerant munosabat va formativ baholash affektiv filtrni pasaytiradi, real kommunikativ vazifalar esa kiruvchi til materialini faol qayta ishlanadigan resursga aylantiradi. Og‘zaki nutq kompetensiyasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va ularning TBL jarayonidagi o‘rni 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Nutq kompetensiyasiga ta’sir qiluvchi psixolingvistik omillar

№	Omil	Ta’rifi	Nutq kompeten–siyasiga ta’siri	TBL jarayonidagi roli	Pedagogik tavsiyalar
1	**Xotira**	Til birliklarini saqlash va kerakli paytda qayta chaqirish qobiliyati	So‘z boyligi va grammatik strukturalarni qo‘llashni ta’minlaydi	Vazifa jarayonida til birliklarini aktivlashtiradi	Takrorlash, til birliklarini ma’noli bloklash, kontekstda o‘rganish
2	**Ishchi xotira**	Axborotni vaqtincha saqlash va qayta ishlash tizimi	Gap tuzish va nutqni real vaqtda ishlab chiqarishni ta’minlaydi	Vazifa davomida nutq ishlab chiqarishda asosiy rol o‘ynaydi	Qisqa vazifalar, bosqichli murakkablik
3	**Diqqat**	Axborotni tanlash va unga e’tibor qaratish jarayoni	Til materialini to‘g‘ri idrok qilish va o‘zlashtirishga yordam beradi	Vazifa oldi bosqichida muhim	Qiziqarli tasklar, multimodal metodlar

[6] Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 209 p.

№	Omil	Ta’rifi	Nutq kompeten–siyasiga ta’siri	TBL jarayonidagi roli	Pedagogik tavsiyalar
4	**Intrinsik motivatsiya**	Ichki qiziqish asosida o‘rganish	Barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydi	Mustaqil task bajarishni kuchaytiradi	Autentik materiallar
5	**Ekstrinsik motivatsiya**	Tashqi rag‘batlar asosida o‘rganish	Qisqa muddatli natija beradi	Natijaga yo‘naltirilgan tasklarda kuchli	Baholash va mukofot tizimi
6	**O‘ziga ishonch**	O‘z nutqiga bo‘lgan ishonch darajasi	Erkin gapirish va interaksiyani oshiradi	Muloqot qobiliyatini kuchaytiradi	Qo‘llab-quvvatlovchi muhit
7	**Xavotir**	Nutq paytidagi psixologik bosim	Yuqori bo‘lsa, nutqni to‘sadi	Vazifa jarayonida pasaytirilishi kerak	Stresssiz muhit yaratish
8	**Ijtimoiy omillar**	Guruhda o‘rganish va muloqot	Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi	Juft/guruh ish asosini tashkil etadi	Hamkorlikda o‘rganish

Birinchi bobning ikkinchi faslida TBL nazariy evolyutsiyasining komparativ-tarixiy rekonstruksiyasi amalga oshirilgan. Ilmiy adabiyotlarda TBL tarixi odatda mualliflar va asarlarning xronologik ketma-ketligi sifatida yoritiladi. Ushbu tadqiqotda esa har bir davr nazariy tayanch, “vazifa” tushunchasining talqini, til shakliga munosabat va og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyat kabi mezonlar asosida yoritilgan va quyidagi besh davr ajratildi. Birinchisi 1970-yillarni qamrab olgan klassik kommunikativ davrdir. Ikkinchisi shakllanish davri bo‘lib, u N. Prabhuning Bangalor loyihasi va M. Longning interaksiya gipotezasi bilan bog‘liq davr. Uchinchi davr metodik tizimlashtirish bosqichi hisoblanib, bu davrda D. Nunan ishlari hamda J.Willis taklif etgan model muhim o‘rin tutadi. To‘rtinchi davr kognitiv yondashuv bilan tavsiflanadi (P.Skehan, P.Robinson, R.Ellis)[7]. Beshinchi davr esa kognitiv-diskursiv davr sifatida belgilandi.

Kognitiv-diskursiv paradigma deganda vazifa bir vaqtning o‘zida kognitiv va diskursiv jihatdan loyihalanadigan bosqich tushuniladi. Evolyutsiya trayektoriyasi strukturaviy va dinamik xususiyatga ega. Berilayotgan vazifa ma’noni ifodalashga yo‘naltiriladi va mashg‘ulot J. Willis modelidagi vazifa oldi (pre-task), vazifa (task cycle) va tilga e’tibor (language focus) bosqichlarida tashkil etiladi. Vazifalar P. Robinson mezoniga ko‘ra kognitiv murakkablik bo‘yicha oddiydan murakkabga qarab tizimlashtiriladi. P.Skehanning cheklangan diqqat sig‘imi modeliga ko‘ra, o‘rganuvchi murakkablik, ravonlik va aniqlikni bir vaqtda maksimal nazorat qila olmaydi va ular o‘rtasida murosali muvozanat (trade-off) yuzaga keladi[8]. TBL bu mexanizmni hisobga oladi: vazifa oldi (pre-task) bosqichida lingvistik tayanch yaratiladi, vazifa (task cycle) bosqichida ma’noga yo‘naltirilgan nutq shakllanadi, tilga e’tibor (language focus) bosqichida esa til shakllariga ongli e’tibor qaratiladi.

[7] Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 387 p
[8] Skehan P. A Cognitive Approach to Language Learning. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 324 p

Shu munosabat bilan og‘zaki nutqning sifat ko‘rsatkichlari sifatida aniqlik, murakkablik va ravonlik olingan. Tadqiqotda ular bir-birini to‘ldiruvchi dinamik tizim sifatida qaralib, TBL doirasida vazifalarni loyihalashda uchala ko‘rsatkichni muvozanatli rivojlantirish zarurligi asoslangan.

Birinchi bobning uchinchi faslida psixolingvistik to‘siqlarning nutq faoliyatiga yagona mexanizm orqali ta’sir etishi asoslanib, bu mexanizm “kommunikativ tormozlanish” deb nomlangan. Kommunikativ tormozlanish – affektiv omillar va lingvistik yetishmovchilik ta’sirida nutq hosil qilish jarayonining vaqtincha sekinlashishi yoki to‘xtab qolishi bo‘lib, u talabaning til bilimi yetarli bo‘lgan holatda ham yuzaga kelishi mumkin. Ushbu tushunchaning nazariy asosini P.MacIntyre va R.Gardnerning til xavotiri konsepsiyasi tashkil etadi[9]. Mexanizm uch bo‘g‘indan iborat: qo‘zg‘atuvchi omil (xavotir, ishonchsizlik, zarur so‘zning topilmasligi) → kognitiv ta’sir (ishchi xotira resursi xavotir va ortiqcha o‘z-o‘zini nazoratga sarflanadi) → nutqiy namoyon bo‘lish (uzun pauzalar, gapni yarimta qoldirish, javobdan qochish).

Tormozlanishning kuzatiladigan ko‘rsatkichlari sifatida 2 soniyadan uzun pauzalar, tashlab ketilgan gaplar, ona tiliga o‘tish holatlari va nutq tezligi, ishonch indikatorlari sifatida esa o‘z gapirish qobiliyatini baholash, guruh oldida gapirishga tayyorlik va xato qilganda muloqotni davom ettira olish belgilangan. Shu asosda quyidagi qonuniyat ilgari surilgan. Bu jarayonda nutq xavotiri qanchalik yuqori va ishonch indikatorlari qanchalik past bo‘lsa, tormozlanish ko‘rsatkichlari shunchalik ko‘p, og‘zaki nutq natijasi esa shunchalik past bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “Oliy ta’lim sharoitida TBLni joriy etishning diagnostik va metodik asoslari” deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand davlat chet tillar instituti, O‘zMU Jizzax filiali va Navoiy davlat universitetining “Og‘zaki nutq amaliyoti” fani sillabuslari tahlil qilingan.

TBL texnologiyasida adaptiv baholash (adaptive assessment) va individual feedback ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim didaktik komponent hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarning individual kognitiv-lingvistik xususiyatlarini hisobga olib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (learner-centered instruction) tamoyillari asosida o‘qitishni optimallashtirishga qaratilgan. Adaptiv baholash vazifa murakkabligini talabaning mavjud kompetensiyasi va yaqin rivojlanish zonasi (Zone of Proximal Development – ZPD)[10] ga moslashtiradi. Bunda baholash statik natija emas, dinamik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi, bu esa kognitiv faollik (cognitive engagement) va til o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi.

Individual teskari aloqa (individual feedback) esa nutqiy xatolarni aniqlash, tahlil qilish va tuzatishga xizmat qiladi. Uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri (explicit),

[9] MacIntyre P.D., Gardner R.C. The Subtle Effects of Language Anxiety on Cognitive Processing in the Second Language // Language Learning. – 1994. – Vol. 44, № 2. – P. 283-305.
[10] Kozulin A. Vygotsky’s Theory in the Classroom: Introduction // European Journal of Psychology of Education. – 2004. – Vol. 19, № 1. – P. 3-7.

bilvosita (implicit) va kechiktirilgan (delayed) shakllari talaba ehtiyojiga mos qo‘llanilib, aniqlik (accuracy) bilan birga ravonlik (fluency)ni ham rivojlantiradi.

Diagnostik baholash (diagnostic assessment) va formativ baholash (formative assessment) integratsiyasi esa uzluksiz monitoring tizimini (continuous monitoring system) shakllantirib, boshlang‘ich darajani aniqlash va rivojlanish dinamikasini kuzatish orqali o‘qituvchiga individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Natijada, bu ikki mexanizmning uyg‘un qo‘llanilishi talabalarda nafaqat til tizimini, balki uni real muloqotda qo‘llash kompetensiyasini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy kommunikativ ta’lim (communicative language teaching) maqsadlariga to‘liq mos keladi (3-jadval):

3-jadval

Adaptiv baholashning komponentlari

Komponent	Tavsif	TBLdagi ahamiyati
Formativ baholash	O‘quv jarayonida talabaning rivojlanish dinamikasini muntazam baholash va monitoring qilish	Talabaning rivojlanishini kuzatish va individual teskari aloqa (feedback) berishni ta’minlaydi
Diagnostik baholash	Talabaning mavjud bilim, ko‘nikma va qiyinchiliklarini aniqlash	Vazifalarning mazmuni va murakkablik darajasini talabaning imkoniyatlariga moslashtirish uchun asos yaratadi
Differensial yondashuv	Talabalarning bilim darajasi va individual xususiyatlariga muvofiq turli darajadagi vazifalarni tanlash	Har bir talabaning yaqin rivojlanish zonasi (YRZ) doirasida ishlashini ta’minlaydi

Mazkur jarayon TBL texnologiyasi asosida adaptiv baholash va individual teskari aloqa (feedback) mexanizmlarining o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashini aks ettiradi. Jarayon markazida vazifa (task) turib, u o‘quv jarayonining asosiy birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir vazifa talabani ma’noga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyatga jalb etadi va uning lingvistik hamda kommunikativ resurslarini faollashtiradi. Ijro bosqichida talaba yaqin rivojlanish zonasi doirasida real yoki realga yaqin vaziyatda til birliklaridan foydalanadi; baholash bosqichida diagnostik baholash mavjud darajani aniqlaydi, formativ baholash rivojlanish dinamikasini kuzatadi, adaptiv baholash esa vazifa murakkabligini talabaning imkoniyatiga moslashtiradi; teskari aloqa bosqichida xatolar to‘g‘ridan-to‘g‘ri (explicit), bilvosita (implicit) yoki kechiktirilgan (delayed) shaklda tuzatiladi.

TBLda “vazifa → ijro → baholash → teskari aloqa → moslashtirish” sikli ta’lim jarayonining dinamik va moslashuvchan modelini yaratadi. Ushbu model talabaning individual rivojlanishini markazga qo‘ygan holda, samarali kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning vazifani bajarganlik darajasini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi (4-jadval):


4-jadval

CEFR talablariga moslashtirilgan talabalarning ogʻzaki nutq kompetensiyasini baholash mezonlari

Mezon	Tavsifi	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
Ravonlik (Fluency)	Nutqning tabiiyligi, uzluksizligi va muloqotni davom ettirish qobiliyati	Nutq ravon, uzulishlar minimal	Ayrim pauzalar mavjud, muloqot saqlanadi	Pauzalar tez-tez uchraydi	Nutq uzilib qoladi	Muloqot deyarli amalga oshmaydi
Leksik boylik (Range and vocabulary)	Lugʻat zaxirasining yetarliligi va mavzuga mosligi	Turli va aniq leksik birliklardan foydalanadi	Lugʻat zaxirasi yetarli	Cheklangan lugʻat bilan fikr bildiradi	Soʻz tanlashda qiyinchilik kuzatiladi	Lugʻat zaxirasi juda cheklangan
Grammatik aniqlik (Grammatical accuracy)	Grammatik tuzilmalardan toʻgʻri foydalanish darajasi	Xatolar deyarli yoʻq	Ayrim xatolar mavjud	Xatolar muloqotga qisman ta’sir qiladi	Koʻp grammatik xatolar mavjud	Grammatik xatolar muloqotni buzadi
Talaffuz (Pronunciation)	Fonologik nazorat va tushunarlilik darajasi	Talaffuz aniq va tushunarli	Kichik kamchiliklar mavjud	Ba’zi tovush xatolari uchraydi	Talaffuz muloqotni qiyinlashtiradi	Talaffuz tushunishga toʻsqinlik qiladi
Interaktivlik (Interaction)	Suhbatni boshlash, davom ettirish va yakunlash koʻnikmasi	Muloqotni faol boshqaradi	Hamkorlikda ishtirok etadi	Savollarga javob bera oladi	Passiv ishtirok etadi	Muloqotga deyarli kirisha olmaydi

Tadqiqotda kommunikativ-faoliyat yondashuvi asosida konseptual-adaptiv model ishlab chiqilgan. Model nazariy-metodologik asoslar, maqsad, beshta asosiy komponent (maqsadli, mazmuniy, jarayonli-didaktik, adaptiv, baholash), barcha bosqichlarni qamrab oluvchi psixolingvistik-regulyativ komponent, amalga oshirish mexanizmi va natijaviy komponentdan iborat. Modeldagi strelkalar komponentlar oʻrtasidagi funksional bogʻliqlikni hamda jarayonning siklik xususiyatini ifodalaydi.

Modeldagi yoʻnaltiruvchi chiziqlar komponentlar qanday bogʻlanganini koʻrsatadi. Vertikal chiziqlar asosiy ketma-ketlikni bildiradi: nazariy asoslar maqsadni, maqsad komponentlarni belgilaydi, komponentlar esa natijaga olib keladi. Komponentlar orasidagi chiziqlar maqsad mazmunni, mazmun jarayonni, jarayon esa vazifalarni moslashtirishni belgilashini koʻrsatadi. Uzlukli chiziqlar talaba oʻz nutqini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni barcha bosqichlarda bajarishini koʻrsatadi. Siklik chiziqlar bu jarayonlar har bir vazifada takrorlanishini bildiradi. Teskari aloqa chizigʻi natijalar tahlili asosida yangi maqsad va vazifalar belgilanishini koʻrsatadi. Demak, model natijalarga qarab doimiy yangilanib boradi(1-rasm):



1-rasm. Task-based ta'lim texnologiyasi asosida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual-adaptiv modeli.

Konseptual-adaptiv mexanizmda differensial va adaptiv yondashuvlar birlashtirilgan: talabalar diagnostika natijasiga koʻra darajaviy guruhlarga ajratiladi, har bir vazifa siklidan keyin esa natija qayta baholanib, keyingi vazifa darajasi oʻzgartiriladi. Vazifa darajasini tanlashda toʻrt mezondan iborat adaptiv mezonlar tizimi va P.Robinsonning kognitiv gipotezasi asos qilib olingan; talaba nazoratli, yarim erkin yoki erkin vazifalardan biriga yoʻnaltiriladi. Shu asosda moslashuvchanlik qonuniyati ta'riflangan: vazifaning ta'limiy samaradorligi uning murakkabligi talabaning diagnostik aniqlangan tayyorgarlik darajasidan bir pogʻona yuqori boʻlganda eng yuqori boʻladi; daraja teng boʻlsa rivojlanish sekinlashadi, ikki va undan ortiq pogʻona yuqori boʻlsa xavotir ortib, kommunikativ tormozlanish kuchayadi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida ogʻzaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan vazifalar tizimi uch bosqichda ishlab chiqilgan. Birinchi bosqichda tayanch iboralar va namunaviy til birliklariga tayangan nazoratli vazifalar, ikkinchi bosqichda fikrni asoslash va muloqot strategiyalarini rivojlantiruvchi yarim nazoratli vazifalar, uchinchi bosqichda esa qaror qabul qilish va muqobil yechimlarni baholashni talab qiluvchi erkin vazifalar – simulyatsiya, rolli oʻyin, bahs-munozara va loyihalar qoʻllanilgan.

Dissertatsiyaning "Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari" deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari yoritilgan. Tajriba-sinov maydonlari sifatida Samarqand davlat chet tillar instituti (SamDCHTI), Navoiy davlat universiteti (NavDU) hamda Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali (OʻzMU Jizzax filiali) tanlangan. Ingliz tilini oʻqitishda ogʻzaki nutq kompetensiyasini "Task-based" ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirish boʻyicha mavjud holatni obyektiv baholash maqsadida oʻtkazilgan anketa soʻrovnomasida jami 482 nafar respondent, shundan 470 nafar talabalari va 12 nafar oʻqituvchi qatnashdi (5-jadval):

5-jadval

Tajriba-sinov maydonlaridagi tajriba va nazorat guruhlari talabalari soni

Tajriba-sinov maydonlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Samarqand davlat chet tillar instituti	80	80
Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali	100	100
Navoiy davlat universiteti	55	55
Jami	**235**	**235**

Belgilangan talablarga koʻra, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish toʻrt bosqichdan iborat boʻldi.

Birinchi – tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichida tajriba-sinov maydonlari belgilandi, DTS va malaka talablari, 60230100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (ingliz tili) yoʻnalishi boʻyicha oʻquv reja va dasturlari tahlil qilindi. "Ogʻzaki nutq amaliyoti" mashgʻulotlari kuzatildi. Olingan natijalar asosida tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari aniqlashtirildi.

Diagnostik bosqichda lingvopsixologik so‘rovnoma, og‘zaki test va kuzatuvlar asosida talabalar kommunikativ tormozlanish darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratildi va har bir guruh uchun alohida pedagogik yordam belgilandi: yuqori darajadagilar juftlikda, rejalashtirish vaqti va tayanch iboralar bilan, o‘rta darajadagilar kichik guruhlarda muammoli vazifalar bilan, past darajadagilar esa erkin vazifalar va taqdimotlar bilan ishladi. Tormozlanish darajasi va dastlabki og‘zaki test natijalarini solishtirish ular o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Tajriba oldi diagnostik tahlil talabalarda kommunikativ ehtiyoj yuqori bo‘lishiga qaramay, real kommunikativ kompetensiya yetarli rivojlanmaganini, lingvistik hamda psixologik to‘siqlar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

Ikkinchi – tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida tajriba-sinov muddati, o‘quv materiali hajmi va ishtirokchilar tarkibi belgilandi. Aniqlangan muammolar asosida Task-Based Learning texnologiyasidan foydalanish modeli, uni sinovdan o‘tkazish metodikasi, mashqlar tizimi, vazifalar to‘plami ishlab chiqildi.

Uchinchi – amaliy bosqichda ishtirokchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib, 2025-2026 o‘quv yilida ishlab chiqilgan metodik-didaktik ta’minot asosida tajriba ishlari amalga oshirildi. J. Jalolov tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tasnifi TBL texnologiyasi bilan integratsiya qilinib, uning asosiy bosqichlariga moslashtirildi.

To‘rtinchi – yakuniy-tahliliy bosqichda tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilinib, matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Natijalar asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi va ilmiy farazning tasdiqlanganlik darajasi aniqlandi hamda tegishli xulosa va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tajriba-sinov jarayonida TBL texnologiyasining asosiy bosqichlariga moslashtirilgan mashq turlari va ularning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni 6-jadvalda keltirilgan (6-jadval):

6-jadval

Og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar

Mashq turi	J. Jalolov ta’rifi	TBL bosqichida qo‘llanishi	1-kurs talabalari uchun namunaviy vazifa
Shakllantiruvchi mashq	Til materialini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashq turi bo‘lib, unda yangi leksik birliklar va grammatik strukturalar o‘zlashtiriladi.	**Vazifa oldi** bosqichida yangi til birikmalarini tanishtirish va ularni mashq qilish uchun qo‘llaniladi.	“Ordering food” mavzusida yangi so‘zlar: *menu, waiter, bill, order*. Talaba gap tuzadi: “I’d like to order a salad.”
Rivojlantiruvchi mashq	O‘rganilgan til materialini nutqda faol qo‘llashga yordam beruvchi mashq bo‘lib, muloqot faoliyatini rag‘batlantiradi.	**Vazifa** bosqichida talabalarning erkin muloqotga o‘tishini ta’minlovchi kommunikativ vazifalar orqali amalga oshiriladi.	Rol o‘yin: “Restaurant scene” – biri mijoz, biri ofitsiant bo‘lib o‘zaro suhbatga kirishadi.
Takomillashtiruv-chi mashq	Nutq orqali fikr bayon qilish va suhbatdosh fikrini tushunishga qaratilgan, erkin	**Tilga e’tibor** bosqichida og‘zaki bayon, muhokama,	“Favorite restaurant” mavzusida og‘zaki prezentatsiya qilish yoki

	muloqotni shakllantiruvchi mashq turi.	tahlil va refleksiya faoliyatlari orqali qo‘llaniladi.	guruhda eng yaxshi restoran haqida fikr almashish.

